

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XAYDAROVA DILDORA JAXONGIR QIZI

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV HISOBNI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Xaydarova Dildora Jaxongir qizi

Aksionerlik jamiyatlarida korporativ hisobni
takomillashtirish..... 3

Хайдарова Дилдора Жахонгир кизи

Совершенствование корпоративного учета в акционерных
обществах..... 32

Xaydarova Dildora Jaxongir qizi

Improving corporate accounting in joint stock companies..... 62

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 67

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XAYDAROVA DILDORA JAXONGIR QIZI

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV HISOBNI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2022.3.PhD/Iqt2247 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdusalomova Nodira Baxodirovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rizayev Nurbek Kadirovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Babaxalov Norbo'ta Eshnazarovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____soat___dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (71) 239-28-72; faks: (71) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisob tizimining samarali tashkil etilishi kompaniyalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, kapital bozori ishtirokchilariga aniq va ishonchli ma’lumotlar taqdim etish hamda investorlar ishonchini mustahkamlash orqali investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim o‘rin tutadi. Korporativ hisob standartlari asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar xalqaro kapital bozorlaridagi raqobatbardoshlikni oshirish bilan birga, iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonida aniq va ishonchli tahlillar uchun zarur bo‘lgan axborot bazasini shakllantirib, aksionerlik jamiyatlari iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Korporativ hisob tizimi yirik kompaniyalarning globallashuv sharoitidagi risklarni boshqarish va moliyaviy faoliyatini takomillashtirishning asosiy dastaklaridan biri hisoblanadi. Shunga ko‘ra, buxgalteriya hamda korporativ hisobi va hisobotini shakllantirishda barcha iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish dolzarb muammolardan biridir.

Jahonda aksionerlik jamiyatlarida korporativ hisobini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari qatoriga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) muvofiq moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish metodologiyasini takomillashtirish, raqamli texnologiyalar (shu jumladan, blokcheyn va sun‘iy intellekt) asosida korporativ hisobni avtomatlashtirish va uning shaffofligini oshirish, aksionerlik jamiyatlarida ichki nazorat va audit tizimini kuchaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish, korporativ boshqaruv qarorlarini qabul qilishda integratsiyalashgan hisobot tizimlarini joriy etish, shuningdek, ekologik va ijtimoiy mas’uliyat bo‘yicha korporativ hisob va hisobotning ilmiy-nazariy asoslarini rivojlantirish kiradi. Ushbu yo‘nalishlardagi tadqiqotlar natijasida aksionerlik jamiyatlarining iqtisodiy samaradorligi va global kapital bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga qaratilgan yangi ilmiy-amaliy yechimlar shakllantiriladi.

O‘zbekistonda korporativ hisobni takomillashtirish va uning xalqaro standartlarga moslashuvini ta’minlash maqsadida qator strategik vazifalar belgilangan bo‘lib, bulardan asosiylari hisobotning shaffofligini oshirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda biznes subyektlarining xalqaro moliya bozorlariga integratsiyasini tezlashtirishdir. Bu yo‘nalishda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) va Auditning xalqaro standartlarini (AHS) milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich implementatsiya qilish, buxgalteriya hisobi sohasida kadrlar tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, hisobotning elektron shakllarini amaliyotga joriy etish kabi chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu sa’y-harakatlar mamlakatning iqtisodiy shaffofligi, xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi va investitsion muhitining yaxshilanishiga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qarori muhim qadam bo‘lib, unda milliy standartlarni MHXS bilan uyg‘unlashtirish, xalqaro standartlar bo‘yicha sertifikatlashtirish tizimini yaratish va akkreditatsiyadan o‘tgan o‘quv markazlarida mutaxassislarni tayyorlash choralari belgilab berilgan. Ijro etuvchi organlarning vakolatlari va auditorlik tartib-

taomillariga tegishli o'zgartirishlar kiritish, korporativ hisob va kompaniyalar hisobotlarining shaffofligini ta'minlashda korporativ tuzilmalarning rivojlanishi hamda tadbirkorlik faoliyatining yangi bosqichlarida korporatsiya egalari manfaatlarini inobatga olgan holda, korporativ hisobni takomillashtirish, korporativ hisobning "konseptual apparati"ni shakllantirish va nazariy jihatdan asoslash, milliy korporativ hisob yuritishning asosiy yo'nalishlarini ilmiy dalillash, hisob siyosatini shakllantirishda buxgalteriya obyektlarini baholashning xalqaro usullaridan iborat dastur ishlab chiqish, korporativ hisob va hisobot tizimida tranzaksion xarajatlarni hisobga olishning zaruriyatini ilmiy asoslashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PQ-60-son "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 8-noyabrdagi PQ-415-son "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisobning nazariy va uslubiy asoslari S.J. Grey, D.Nort, I.F. Sherr, D. Asvat, Y.V. Skarednova, Y.Vinslav va boshqa xorijlik olimlar ilmiy ishlarida keng yoritilgan¹.

Korporativ hisobning ba'zi iqtisodiy jihatlari o'zbekistonlik olimlar

¹ Грэй, С. Дж. Финансовый учет: глобальный подход [учеб. метод. пособие: пер. с англ.] / С. Дж. Грэй, Б.Е. Нидлз. – М.: Волтерс Клувер, 2006; Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. – М., 1997. – С. 45; Шерр И.Ф. Бухгалтерия и баланс: пер. с нем. С.И. Чедырбаума / И.Ф. Шерр – М.: Экономическая жизнь, 1925; Дамодаран Асват. Инвестиционная оценка. Инструменты и техника оценки любых активов / пер. с англ. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2004; Скареднова Ю.В. Журнал «Управление корпоративными финансами». Июнь, 2008 (№3). Особенности и тенденции построения корпоративных структур в частном секторе экономики. Винслав Ю. Утверждая научные принципы управления инкорпорированными корпорациями / Ю. Винслав // Рос. Экон. журнал. – 2001. – № 10. – С. 3 – 26; Андронов В.В. Корпоративный менеджмент в современных экономических отношениях / В.В. Андронов; науч. ред. В. С. Балабанов; Рос. акад. предпринимательства. – М.: Экономика, 2003; А.М. Макаров. Учебное пособие «Корпоративное управление» ИЭиУ УдГУ, Ижевск, 2012; Николаева С.А. Учетная политика организации: принципы формирования, содержание, практические рекомендации, аудиторская проверка / С.А. Николаева. – М.: «Аналитика-Пресс», 2001. – 368 с.; Безруких П.С. Бухгалтерский учет. Учебник. Гриф МО, 2004. – 528 с.; Кондраков Н.П. Бухгалтерский учет: Учебное пособие. М.: ИПБ – БИНФА, 2002; Дружиловская Т.Ю. Совершенствование бухгалтерского учета обязательств по налогу на прибыль и сближение его с требованиями МСФО // Международный бухгалтерский учет. 2012. – № 28. – С. 2–11. Дата доступа: 12.03.2022. Чая В.Т. Концептуальные проблемы адаптации МСФО в России / В.Т. Чая // Международный бухгалтерский учет. – 2008. – №1. – С. 22 – 29; Соколов Я.В. Основы теории бухгалтерского учета. / Я.В. Соколов. – М.: Финансы и статистика, 2000; Нестеренко А.Н. Экономика и институциональная теория / А.Н. Нестеренко; отв. ред. акад. Л.И. Абалкин. – М.: Эдиториал УРСС, 2002.

B.Berkinov, D.Suyunov, A.Xashimov, A.A. Safarov, R.R. Xusainov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan². Shunindek, buxgalteriya hisobi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlar – N.B. Abdusalomova, R.D. Do‘smuratov, B.A. Xasanov, A.A. Karimov, R.O. Xolbekov, A.K. Ibragimov, D.Norbekov, I.K. Ochilov, N.Q. Rizayev, M.Xodjayeva, Z.T. Mamatov, A.T. Ibrohimov, D.E. Norbekov, S.K. Maxmudov, D.M. Mavlyanova, A.Kozimjonov, M.M. To‘laxo‘jayeva, M.Y. Raximov, A.X. Shoalimov va boshqalarning ilmiy ishlarida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan³.

Mazkur tadqiqotlarda moliyaviy natijalar hisobining umummetodologik asoslariga tayangan holda, ayrim muammolarning tashkiliy jihatlari tadqiq qilingan. Biroq tadqiqotlarga ko‘ra, moliyaviy natijalarning nazariy muammolari masalaning bir tomoni bo‘lsa, ikkinchi tomoni, uning amaliy jihatdan turli sohalarga mos kelishidir. Binobarin, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisob tizimini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, FM-6-sonli “O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika sohalari taraqqiyotining konseptual yo‘nalishi” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

² Беркинов Б. Корпоративные структуры (Основы создания и управления). – Т.: Изд-во Нац. б-ки Узбекистана, 2005. – 132 с.; Суёнов Д. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т., Академия, 2007. – 319-б.; Хашимов А. Ўзбекистонда интеграциялашган корпоратив тузилмаларни бошқариш методологиясини такомиллаштириш. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2007. – 338-б.; Сафаров А.А. Учетная политики. Внутрифирменные стандарты управленческого учета / А.А. Сафаров // Управленческий учет, 2006, №5; Хусайнов Р.Р. Совершенствование корпоративного управления в Узбекистане залог успешного функционирования АО / Р.Р. Хусайнов. – Текст: // Молодой ученый. – 2017. – № 1.3 (135.3). – С. 51– 54; Пардаев А.Х., Пардаева З.А. Управленческий учет. – Т., Ф.Фулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2015. – 318 стр.; Замонавий бошқарув ҳисоби. Дарслик./ Б.А. Ҳасанов, К.Т. Нурманов, Р.Б. Ҳасанова. – Т., «LESSON PRESS» МЧЖ нашриёти, 2021 й.; Абдусаломова Н.Б. Бошқарув ҳисоби тизимида ички назорат ва бюджетлаштириш услубиятини такомиллаштириш. Иқтисод фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т., ТМИ. 2019; Хажимуратов. Молиявий ҳисоботнинг ишончилигини таъминлаш йўналишлари. – Т., Иқтисод ва молия, 2020 й. – №3 (135).

³ Абдусаломова Н.Б. Қора металлургия саноат корхоналарида харажатларни бошқариш ва бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш. Иқтисод фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т., 2017; Дусмуратов Р.Д. Аудиторлик фаолияти: назария, услубиёт ва амалиёт: Монография. – Тошкент: “Молия”, 2007. – 276-б.; Хасанов Б.А, Хашимов А.А. Бошқарув ҳисоби. Дарслик. – Т., Янги нашр, 2011; Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудитини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. БМА. – Т., 2009; Холбеков Р.О. Донни сақлаш ва қайта ишлаш корхоналарида ишлаб чиқариш ҳисобини ташкил қилишнинг тамойиллари ва услубиёти. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2006; Ибрагимов А.К., Марпатов М.Д., Ризаев Н.Қ. Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари асосида банкларда бухгалтерия ҳисоби. – Т., Молия, 2010. – 272-б.; Норбеков Д.Е., Очилов И.К. “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари” фанидан ўқув-услубий қўлланма. – Т., 2019; Ташназаров С.Н., Ташназарова Д.С. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. – Самарқанд: СамИСИ, 2018. – 421-б.; Уразов К.Б. Молиявий ҳисобот: миллий ва халқаро стандартлар мувофиқлиги йўлида. //Бозор, пул ва кредит. – Т., 4/2013; Махмудов С.К. Молиявий инструментларнинг ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш. Иқтисод фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2023; Д.М. Мавлянова. Жорий активлар ҳисоби, таҳлили ва аудитининг услубий жиҳатларини такомиллаштириш. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2020; А.Козимжонов. Хўжалик юритувчи субъектларда қарз мажбуриятлари бўйича харажатлар ҳисобини такомиллаштириш. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2022.

Tadqiqotning maqsadi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisob tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisobning maqsadi, vazifalari, o'ziga xosligini ochib berish;

korporativ hisob va hisobotlarni tartibga solish tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqish;

korporatsiya siyosatini shakllantirish xususiyatlarini o'rganish;

korporativ tizimda tranzaksion xarajatlarning roli va ahamiyatini asoslash;

korporativ obyektlarni baholash muammolarini tahlil qilish;

korporativ hisobotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqish;

MHXS bo'yicha asosiy hisobot shakllarining mohiyati, mazmuni va semantik tarkibini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'zkimyosanoat" AJning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ma'lumotlari tanlandi.

Tadqiqotning predmeti aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisob tizimini shakllantirish va takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida taqqoslash, qiyosiy taqqoslash, kuzatuv, nazariy va amaliy o'rganish, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, iqtisodiy-matematik tahlil, buxgalteriya hisobi usullari va boshqa metodlardan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra, "korporativ hisob" tushunchasining iqtisodiy mazmuni korxonaning moliyaviy-xo'jalik operatsiyalari, aktivlari va majburiyatlari holati, kapital o'zgarishi hamda iqtisodiy natijalarini xalqaro standartlar va milliy qonunchilik talablari asosida tizimli ravishda yig'ish, tasniflash, qayta ishlash va tahlil qilish orqali kompaniya rahbariyati hamda manfaatdor shaxslarning samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishni ta'minlash jihatidan takomillashtirilgan;

korporativ tuzilmalarda tranzaksion xarajatlarni hisobga olishda 9470 – "Tranzaksion xarajatlar" schyotini tanlash va tuzilgan xarajatlarni hisobga olish, buxgalteriya tizimlarida boshqaruv yoki operatsion xarajatlarni ifodalashning aniqligini oshirish maqsadida 9410 va 9420 ishchi schyotlardan foydalanish orqali aksionerlik jamiyatlarida korporativ hisobni takomillashtirish asoslangan;

korporatsiya egalarining manfaatlarini inobatga olgan holda, moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligi, aniqligi va to'g'ri qaror qabul qilishdagi foydaliligini ta'minlashga qaratilgan yondashuv asosida korporativ moliyaviy hisoboti ishonchliligining 20–25 %ga oshishi va boshqaruv qarorlarining samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanishi asoslangan;

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatining daromadlari va sof foydasining uzoq muddatli davrdagi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida 2028-yilga qadar moliyaviy holatining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisobning maqsadi, vazifalari, o'ziga

xosligini ochib berish asosida korporativ hisob va hisobotlarni tartibga solish tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari aniqlangan;

korporatsiya siyosatini shakllantirish xususiyatlarini ko‘rib chiqish orqali korporativ tizimda tranzaksion xarajatlarning roli va ahamiyati asoslangan;

MHXS bo‘yicha asosiy hisobot shakllarining mohiyati, mazmuni va semantik tarkibi aniqlangan;

“O‘zkiyosanoat” AJning amaliyotga joriy etish uchun “Korporativ hisob va nazoratning integratsiyalashgan tizimi” dasturi tavsiya etilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ hisobga olish amaliyotiga joriy etish uchun “Tranzaksiya xarajatlari” hisobvarag‘i bo‘yicha hisobvaraqlarning yozishmalari tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llangan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar, rasmiy manbalardan olingan ma‘lumotlar, tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisobni takomillashtirishga doir ma‘lumotlarning asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar hamda “O‘zkiyosanoat” AJ rasmiy ma‘lumotlari, shuningdek, taklif va tavsiyalarning aksiyadorlik jamiyatlar tomonidan korporativ hisobni takomillashtirishda foydalanilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilmiy-tadqiqot ishlarida ishlab chiqilgan nazariy tavsifdagi xulosalar va takliflardan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisobni takomillashtirish jarayonida korporatsiyalar tomonidan biznes munosabatlarining turli subyektlari muammolarini hal qilishda boshqaruv vositalarini ishlab chiqish uchun asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan amaliy takliflardan AJlar faoliyatining eng muammoli sohalarini aniqlash, aksiyadorlik jamiyati faoliyati samaradorligini oshirish uchun ilmiy-uslubiy qoidalar tizimini shakllantirish, ommaviy kompaniyaning investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisobni takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “korporativ hisob” tushunchasining iqtisodiy mazmunini korxonaning moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalari, aktivlari va majburiyatlari holati, kapital o‘zgarishi hamda iqtisodiy natijalarini xalqaro standartlar va milliy qonunchilik talablari asosida tizimli ravishda yig‘ish, tasniflash, qayta ishlash va tahlil qilish orqali kompaniya rahbariyati hamda manfaatdor shaxslarning samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishini ta‘minlash jihatidan takomillashtirish bilan bog‘liq nazariy-uslubiy ishlanmalardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Финансовая отчетность” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2022-yil 24-oktabrdagi 328-son buyrug‘i). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish natijasida talabalarda kompaniya rahbariyati hamda manfaatdor shaxslarning samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishini ta‘minlash jihatidan takomillashtirilgan korporativ hisob tushunchasi bo‘yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

korporativ tuzilmalarda tranzaksion xarajatlarni hisobga olishda 9470 – “Tranzaksion xarajatlar” schyotini tanlash va tuzilgan xarajatlarni hisobga olish buxgalteriya tizimlarida boshqaruv yoki operatsion xarajatlarni ifodalashning aniqligini oshirish maqsadida 9410 va 9420 ishchi schyotlardan foydalanish orqali aksionerlik jamiyatlarida korporativ hisobni takomillashtirish taklifi “O‘zkimyosanoat” AJning hisob siyosatiga kiritilgan (“O‘zkimyosanoat” AJning 2025-yil 20-iyundagi 03-1779-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish natijasida kompaniya xarajatlarini boshqarishni takomillashtirish va korporativ faoliyat samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan;

korporatsiya egalarining manfaatlarini inobatga olgan holda, moliyaviy ma’lumotlarning shaffofligi, aniqligi va to‘g‘ri qaror qabul qilishdagi foydaliligini ta’minlashga qaratilgan yondashuv asosida korporativ moliyaviy hisobot ishonchliligining 20–25 %ga oshishi va boshqaruv qarorlarining samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanishiga oid taklifi “O‘zkimyosanoat” AJning hisob siyosatiga kiritilgan (“O‘zkimyosanoat” AJning 2025-yil 20-iyundagi 03-1779-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish natijasida korporativ maqsadni aniqlash, korporatsiya xodimlarini safarbar qilish, korporativ tuzilishga tegishli bo‘lishning aniq mezonlarini aniqlash, tashkilotning qadriyatlar tizimini shakllantirish, innovatsion tadbirkorlik g‘oyalarini ilgari surish, korporativ tuzilma samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan;

“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatining daromadlari va sof foydasining uzoq muddatli davrdagi o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan moliyaviy holatining prognoz ko‘rsatkichlari “O‘zkimyosanoat” AJ faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zkimyosanoat” AJning 2025-yil 20-iyundagi 03-1779-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish natijasida aksiyadorlik jamiyati daromadlari va sof foydasining uzoq muddatli davrdagi ijobiy moliyaviy holatini ta’minlashga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlik aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruza shaklida bayon etilgan hamda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan jurnallarda 5 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 159 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan; tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan; ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning

ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisobning nazariy jihatlarini”** deb nomlanib, unda korporativ hisobning rivojlanish bosqichlari, korporativ tuzilma va ularning buxgalteriya hisobi va hisobotini rivojlantirishga ta'siri, shuningdek, korporativ konsepsiyasining nazariy asoslari va korporativ hisob hamda hisobotni tartibga solish tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti barqaror o'sishda davom etmoqda. XVF ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda yalpi ichki mahsulotning o'sishi taxminan 6,4 %ni tashkil etgan. Bu iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini saqlab qolish va eksport daromadlarining ko'payishi bilan bog'liq. XVF tomonidan taxmin qilingan 2025-yilgi prognoz 5,7 %gacha, ya'ni yanada o'sishni va'da qilmoqda. O'tgan yillar bilan taqqoslaganda, O'zbekiston iqtisodiyoti mo'tadil sur'atlarda o'sdi: 2019-yilda o'sish 5,6 %ni tashkil etdi, 2020-yilda esa COVID-19 pandemiyasi tufayli 1,7 %gacha sekinlashdi. 2021-yilga kelib keskin o'sish – 7,4 % kuzatildi, 2022-yilda esa 5,6 %ga yetdi⁴. Shunday qilib, hozirgi o'sishni so'nggi yillarda pandemiyaning sustlashuvi va iqtisodiy rag'batlantirish choralari tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy barqarorlashuv jarayonining davomi sifatida ko'rish mumkin.

Bugungi kunda korporativ tuzilmalar mulk va kapitalni birlashtirish markazlariga aylandi – bu egalari o'z resurslarini ixtiyoriy ravishda birlashtirgan va alohida xo'jalik yuritishni tashkil etgan yirik tashkilotlar bo'lib, ularning maqsadi tadbirkorlik foydasini olishdir. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi korporatsiyani tadbirkorlik faoliyatining alohida shakli deb hisoblamaydi. Shunga qaramay, iqtisod nazariyasiga oid manbalarda korporatsiya to'g'risida turli xil ta'riflar mavjud. Masalan: tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslar guruhini birlashtirish; faoliyatning cheklanmagan doirasi; malakali menejerlarning mavjudligi; faoliyat milliy qonunchilik asosida amalga oshirilishi kabi.

Rivojlanayotgan korporativ tuzilmaning asosiy maqsadlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

mavjud bozor ulushini himoya qilish va yangi bozorlar uchun kurashni tashkil etish;

qo'shma ilmiy ishlanmalar va yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, qo'shma investitsiya loyihalariga intilish;

moliyaviy imkoniyatlarni oshirish;

raqobatbardoshlikni ta'minlash;

moliyaviy barqarorlik o'rnatish;

faoliyatni diversifikatsiya qilish;

birlashma ishtirokchilari o'rtasida funksiyalarni taqsimlash;

ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish;

boshqaruv samaradorligini oshirish;

tashqi bozorga birgalikda kirishni tashkil etish;

xalqaro operatsiyalar o'tkazish.

⁴ <https://www.imf.org/ru/News/Articles/2024/09/30/pr-24351-uzbekistan-imf-mission-completes-staff-visit>

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, korporativ tuzilma aktivlar va aksiyadorlik jamiyatlarini korporatsiya shaklida birlashtirishni nazarda tutadi. Bunda umumiy maqsadlarga erishish hamda yuqori foyda olish uchun aktivlarni birlashtirgan holda, iqtisodiy yoki huquqiy nuqtayi nazardan qo'shma faoliyat olib boriladi.

Korporativ hisob va xo'jalik hisobi bir-biri bilan chambarchas bog'liq, chunki ikkalasi ham korxonaning iqtisodiy faoliyatini aniqlash, tahlil qilish va boshqarishga qaratilgan. Biroq ular vazifalar, buxgalteriya obyektlari va dastur darajasida farq qiladi. Ularning o'zaro bog'liqligi va farqlarini quyidagi jadvalda aniq ko'rish mumkin.

1-jadval

Xo'jalik va korporativ hisobining o'zaro bog'liqligi va asosiy farqlari⁵

Asosiy farqlar	Xo'jalik hisobi	Korporativ hisob
Tushunchalarni aniqlash	Bu xo'jalik jarayonlar va faoliyat natijalarini kuzatish, o'lchash va nazorat qilishning umumiy tizimi. U uchta asosiy quyi tizimni o'z ichiga oladi: buxgalteriya hisobi (moliyaviy operatsiyalarni aks ettiradi); operatsion hisob (real vaqt rejimida ma'lumotlar taqdim etadi); statistik hisob (ommaviy hodisalar va tendensiyalarni tahlil qiladi).	Bu korporatsiyaning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini hisobga olish va tahlil qilish bilan bog'liq torroq atama. U xo'jalik hisobi elementlarini o'z ichiga oladi, lekin korporativ boshqaruv va aksiyadorlar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga hisobot berishga qaratilgan.
Hisobning obyekti	Xo'jalik faoliyati bilan bog'liq barcha jarayonlar va hodisalar: resurslar, operatsiyalar, natijalar.	Asosiy e'tibor korporativ tuzilmani boshqarish bilan bog'liq operatsiyalar va jarayonlarga qaratiladi: kapital harakati, dividendlar, korporativ xarajatlar.
Hisob darajasi	Tashkilotning barcha darajalarini, shu jumladan, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini qamrab oladi.	Korporativ boshqaruv, strategiya va tashqi hisobot bilan bog'liq darajalarga qaratilgan.
Hisob maqsadlari	Xo'jalik faoliyatining barcha jihatlarini nazorat qilish va tahlil qilishni ta'minlashga qaratilgan.	Boshqaruv qarorlarini qabul qilish, strategik rejalashtirish va korporativ qonunchilik talablariga rioya qilish uchun ma'lumot berishga qaratilgan.
Metodologiya va tamoyillar	Kuzatish, o'lchash, guruhlash va tahlil qilish kabi buxgalteriya universal usullaridan foydalanadi.	Ushbu usullarni korporativ boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlariga, shu jumladan, xalqaro standartlar (MHXS) va korporativ shaffoflik tamoyillariga muvofiqlashtiradi.
Tartibga solish va standartlar	Milliy standartlar va umumiy buxgalteriya tamoyillari bilan tartibga solinadi.	Xalqaro standartlar (MHXS, GAAP), shuningdek, korporativ huquq talablariga bo'ysunadi hamda aksiyadorlar oldida hisobot beradi.

⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadvalga asoslanib, korporativ hisob xo‘jalik hisobi ma’lumotlariga tayanadi hamda ularni korporativ boshqaruv ehtiyojlari uchun umumlashtiradi va moslashtiradi, degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu tizimlarning o‘zaro bog‘liqligi ularning ma’lumot to‘plash, qayta ishlash va talqin qilishdagi o‘zaro ta’sirida namoyon bo‘ladi, bu esa kompaniyaga resurslarni samarali boshqarish, faoliyatning shaffofligini ta’minlash va to‘g‘ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, korporativ hisob tushunchasiga mualliflik ta’rifimiz quyidagicha: korporativ hisob – bu kompaniyaning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini aks ettirish, monitoring va nazorat qilishga qaratilgan iqtisodiy ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilishning integratsiyalashgan tizimi. U tashkilotni boshqarish va tashqi manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish, aktivlar, majburiyatlar va kapitalning harakati va holati, shuningdek, korxona faoliyati natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning shaffofligi va ishonchliligini ta’minlash uchun asosiy axborot manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu ta’rif korporativ hisobning ko‘p qirrali rolini ta’kidlaydi, bu nafaqat moliyaviy operatsiyalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, balki ongli qarorlar qabul qilish, moliyaviy shaffoflikni saqlash va dinamik o‘zgaruvchan iqtisodiy muhitda kompaniyaning barqarorligini oshirishga yordam beradigan strategik vosita vazifasini ham o‘z ichiga oladi.

Korporativ hisobning predmeti, obyektlari va rolini kompaniyaning maqsadlari, buxgalteriya talablari (masalan, me’yoriy hujjatlar va buxgalteriya standartlari), shuningdek, uning biznesi va tuzilishining xususiyatlari asosida aniqlash mumkin.

Tadqiqot predmetining tashkiliy va uslubiy asoslarini o‘rganish asosida O‘zbekistonda korporativ hisob obyektlari (kompaniyaning resurslari va majburiyatlari), predmeti (ushbu resurslarning harakati bilan bog‘liq faoliyat) va roli (tahlil qilish va qaror qabul qilish uchun ma’lumotlar taqdim etish) to‘g‘risida tushunchalarni shakllantirish mumkin:

1. Korporativ hisob predmeti – bu kompaniyaning moliyaviy-iqtisodiy shakldagi faoliyatidir. Bunga aktivlar va majburiyatlardan foydalanish, taqsimlash va nazorat qilish, shuningdek, kompaniya ichida va u bilan tashqi kontragentlar o‘rtasidagi moliyaviy oqimlarning harakati bilan bog‘liq barcha jarayonlar kiradi. Korporativ hisob predmetining asosiy vazifasi kompaniyaning moliyaviy holati va uning ma’lum bir davrdagi o‘zgarishlarini aks ettirishni ta’minlashdir.

2. Korporativ hisobning obyekti – bu kompaniyada hisobga olinadigan barcha narsalar. Korporativ hisobning obyektlariga kompaniyaning resurslari (masalan, aktivlar, majburiyatlar, kapital), uning iqtisodiy jarayonlari (masalan, ishlab chiqarish, sotish, yetkazib berish) va faoliyat natijalari (foyda, zarar, iqtisodiy samaradorlik) kiradi. Obyekt sifatida miqdoriy va kompaniyaning moliyaviy ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatuvchi barcha resurslar va jarayonlar bo‘lishi mumkin.

3. Korporativ hisobning roli – boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash, tahlil qilish va taqdim etishdan iborat. Korporativ hisobning roli kompaniya resurslarini boshqarish, moliyaviy va operatsion jarayonlarni rejalashtirish va nazorat qilish hamda faoliyat samaradorligini baholash imkonini beruvchi axborot bazasini yaratishdir.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni bilan

tartibga solinadi. Unga muvofiq, ustav kapitali jamiyat ishtirokchilarining (aksiyadorlarning) jamiyatga nisbatan majburiyat huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga bo'lgan tijorat tashkiloti aksiyadorlik jamiyati deb e'tirof etiladi. Qonunchilik aksiyadorlik jamiyatlariga korporativ normalarni shakllantirish sohasida juda katta erkinlik beradi – xulq-atvor qoidalarini mustaqil ravishda ishlab chiqish va jamoalarda qo'llash.

Ko'pgina mamlakatlarda korporatsiyalar aktivlar, sotuvlar va daromadlar bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Masalan, AQShda ular barcha sotuvlar qiymatining 80 % ga va barcha foydaning 90 % ga egalik qiladi. Yakka tartibdagi korxonalar va sheriklik esa mos ravishda 13 % va 4 % hamda mos ravishda 7 % va 6 % ni tashkil qiladi.

Tranzaksiyalar korporativ hisobda muhim rol o'ynaydi. Bu korporativ buxgalteriya obyektlaridan biridir. J.R. Commons fikricha, tranzaksiyalar – bu iqtisodiy faoliyat jarayonida strategik munosabatlardir, chunki ularsiz ishlab chiqarish, iste'mol qilish, sotib olish, sotish, investitsiya va boshqalar bo'lishi mumkin emas. “Tranzaksiya” tushunchasi – bu iqtisodiy tashkilot muammosini o'zaro bog'liqlik va tartib muammolari bilan chambarchas bog'liq holda ko'rib chiqqan, bu iqtisodiyotni tizim sifatida tushunishdan kelib chiqadi. 1931-yilda ularga berilgan ta'rifga ko'ra, “Bitimlar tovarlar almashinuvi emas, balki jamiyat tomonidan yaratilgan mulk va erkinliklarni begonalashtirish va o'zlashtirishdir”⁶.

Bizning fikrimizcha, bitim – bu mulk huquqini bir subyektdan boshqasiga o'tkazish, ya'ni almashish. Iqtisodiy nazariyada “Tranzaksiya” ko'pincha “Tranzaksion xarajatlar” deb hisoblanadi. Amalda kompaniyalarning tranzaksion xarajatlar tarkibi o'zgaradi, bu uning faoliyat turi, bozor ulushi, tadbirkor tomonidan tashkilotni boshqarishning tanlangan strategiyasi va boshqa omillarga bog'liq.

Korporatsiya xarajatlari tarkibi shuni ko'rsatadiki, odatdagi faoliyat xarajatlari tranzaksion bitimlarga kiritilgan. Shuningdek, ular xo'jalik yurituvchi subyekttni sotib olish va ishlab chiqarishning haqiqiy xarajatlariga kiritiladi. Tranzaksion xarajatlarining tasnifi, tarkibi hamda ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi 2-jadvalda ko'rib chiqiladi.

Korporativ tashkilot doirasida mulkchilik munosabatlari va boshqaruv ierarxiyasi shakllanadi, bu tranzaksion xarajatlarga olib keladi. Bu esa tashqi pudratchilarni jalb qilish va shartnoma asosida operatsiyalarni bajarish uchun ichki xodimlarni yollash o'rtasida dilemma keltirib chiqaradi.

Xarajatlar iqtisodiy, siyosiy va huquqiy sharoitlarga qarab o'zgaradi. 3-jadvalda kompaniya hayot sikli bosqichlari va ular bilan bog'liq tranzaksion xarajatlar ko'rsatilgan.

Korporativ tuzilmani tugatish jarayoni aksiyalarni keyinchalik bekor qilish, muomaladan chiqarilgan kapitalning qisqarishini qayd etish maqsadida ularni qayta taqsimlash operatsiyalarini o'z ichiga oladi, bu esa ustav fondi hajmining pasayishiga sabab bo'ladi.

⁶ https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30946217&pos=3;-53#pos=3;-53

2-jadval

Tranzaksion xarajatlarning turlari va tashkil etilishi⁷

Tranzaksion xarajatlar turlari	Tranzaksion xarajatlar tarkibi	Buxgalteriya hisobida aks ettirish
Mulk huquqlarini ta'minlash	Davlat ro'yxatidan o'tkazish xarajatlari; ta'sis hujjatlarini tayyorlash va boshqalar	Oddiy faoliyat uchun xarajatlarga kiritilgan.
Resurslardan foydalanishni ta'minlash	Litsenziyalar, patentlar va boshqalarni sotib olish xarajatlari	Oddiy faoliyat uchun xarajatlarga kiritilgan.
Ma'lumot qidirish xarajatlari	Talab va taklifni o'rganish, resurslarni topish xarajatlari, sotuvchilar, reklama va boshqalar	Sotish xarajatlariga kiritilgan.
Muzokaralar va shartnomalar tuzish xarajatlari	Maslahat va yuridik xizmatlar, muzokaralarda ishtirok etadigan korporatsiya vakillarini rasmiy qabul qilish.	Oddiy faoliyat xarajatlariga, shuningdek, sotish xarajatlariga kiritiladi.
Resurslar sifatini baholash xarajatlari	Sifat tahlilini tekshirish xarajatlari	Oddiy faoliyat uchun xarajatlarga kiritilgan.
Ta'minlash, tovarlar va mulk huquqlarining xavfsizligi	Litsenziyalar, patentlar va boshqalarni sotib olish uchun to'lovlar bo'yicha xarajatlari	Oddiy faoliyat uchun xarajatlarga kiritilgan.
Biznesni himoya qilishni ta'minlash	Shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish, sug'urta qilish, qarzlarini undirish va boshqalar	Oddiy faoliyat uchun xarajatlarga kiritilgan.

3-jadval

Korporatsiyaning hayot sikli bosqichlari va tranzaksion xarajatlari o'rtasidagi munosabatlar⁸

Korporatsiya hayot siklining bosqichlari	Boshqaruv yechimlar	Tranzaksion xarajatlari
Barpo bo'lish	Tashkiliy shaklni tanlash	Davlat ro'yxatidan o'tkazish xarajatlari; ta'sis hujjatlarini tayyorlash va boshqalar
Rivojlanish	Amaldagi resurslarni tanlash	Davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun to'lovlar, litsenziyalar, patentlar va boshqalarni sotib olish uchun to'lovlar
Yetuklik	Resurslar bilan ta'minlash	Asosiy vositalar, qimmatli qog'ozlar sotib olish bilan bog'liq maslahat xizmatlari
	Qarz mablag'larini jalb qilish	Olingan kreditlar va ssudalar bo'yicha foizlar: – TMZ uchun oldindan to'lov bilan; – obligatsiyalar va veksellar chiqarilishi bilan; – investitsiya aktivini yaratish bilan.
Qarish	Opportunistik xatti-harakatlardan himoya qilish	Korporatsiya tomonidan hisoblangan jarimalar; Aktivlarni tasarruf etish bilan bog'liq xarajatlari; Korporatsiyaning tugatish xarajatlari.

Korporativ hisob sohasida tranzaksiya xarajatlari turli metodologiyalar yordamida aks ettirilishi mumkin. Buxgalteriya protseduralarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish analitik buxgalteriya hisobida tahlilning aniqligi va chuqurligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, korporatsiyaning buxgalteriya tizimida "tranzaksion xarajatlari" integratsiyalashgan sintetik hisobini yaratish, bu xarajatlarni boshqaruv ehtiyojlariga muvofiq yig'ish va tasniflash imkonini beradi. Ushbu yondashuv O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi bo'yicha me'yoriy hujjatlarida ham aks etgan bo'lib, unda ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olish bilan bog'liq qismda ixtisoslashtirilgan hisobvaraqlarni kiritish orqali elementlar

⁷ Muallif tomonidan tuzilgan

⁸ Muallif tomonidan tuzilgan

va moddalar bo'yicha xarajatlarni batafsil bayon qilish imkoniyati haqida so'z yuritiladi.

